



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 7-8 (922–923)
9-aprel, juma
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazet 1974-yil
mardan chiqqa
boshlagan

TA'LIM VA TARBIYA QUDRATI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

“Kuch – adolatda”, - deb ta’kidlagan edi buyuk sarkarda Amir Temur. Darhaqiqat, kuragi yer ko’rmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, iste’dodli me’mor, notiq, kerak joyida ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtining har jabhadagi – ma’rifat, ta’limdagi otasi edi. Zero, rahbar adl bo’lsagina davlat obod bo‘ladi, yoshlari salohiyatli bo‘lib yetishadi.

Yoshlarga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish o‘z navbatida davlatni boshqarish bilan teng turadi. Negaki, davlat va yoshlarni endigina tetapoya bo‘lgan boladay gap. Amir Temur saltanat boshqarishda to‘rt narsaga amal qilgan: 1) kengash; 2) mashvarat-u maslahat; 3) qat’iy qaror: tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlikdir. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatning barcha qilgan ishlari va aytigan gaplari noto‘g‘ri bo‘lgan johil odamga qiyos qilish mumkin va o‘z o‘rnida uning aytgan so‘zlari va qilgan amallari boshqa odam va xalqqa nadomat keltirgay. Demakki, ta’lim va tarbiyada ham kengash va mashvarat bo‘lmog‘i darkor. Qat’iy qaror va ehtiyotkorlik bu – har bir davlat va mamlakatning boshqarish aso-

si sirasiga kiradi. Bundan ma’lumki, ta’lim-tarbiyada ota-onalar ustozlar ehtiyyot bo‘lmog‘i darkor. Bugun yoshlarning ongidagi bo‘shliqni o‘zining aqidalarini bilan to‘ldirib, buzg‘unchi g‘oyalari ni tatbiq etayotgan aqidaparastlar uchrab turibdi. Yosh avlod ta’lim-tarbiyasida bugungi kunda bo‘shliq qolishining oldini olish uchun yurtboshimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Yurtimizda keng targ‘ib qilinayotgan besh tashabbusni bunga misol tariqasida keltira olamiz. Kitobxonlikka alohida qaratilayotgan e’tibor o‘z samarasini berib kelmoqda. Bugun kitobxon avtomobil sohibiga aylanish imkonini qo‘lga kiritadi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa yoshlarni rag‘batlantirish va kitobxonlikni keng tatbiq qilishdir.

Amir Temurning “Temur tuzuklari” nomli bitiklarda bir qancha davlat boshqaruviiga oid hikmat va yo‘nalishlar keltirilgan: “Ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishining ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”. Darhaqiqat, bugungi kunda loqaydlikka yuz tutilsa, oila bilan birga jamiyatning ham xavfsizligiga putur yetadi. Demak, bitta farzand tarbiyasi butun jamiyatning mas’uliyatiga yuklangan buyuk vazifadir. Yoshlarning bilim olishdagi mashaqqatini hamda ularni qi-

ynab kelayotgan muammolariga yechim topishni jamiyat bartaraf etadi. Agar jamiyat loqaydlikka yuz bursa, yoshlar ta’lim-tarbiyasida bo‘shliq boshlanadi va bevosita ularning ongida ham loqaydlik programmasi shakllanadi. Bunday minglab yoshlardan bitta mard va tadbirkor, ishbilarmon hamda bilimga chanqoq farzand durustdir. Chunki ular jamiyatni boshqara oladi, o‘z oilasini asray oladi. Bugun hech bir rahbarning loqayd bo‘lishga haqqi yo‘q. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, - degan xalq orasidagi naqlida ham katta ma’no bor. Rahbar davlat boshqarishda, ustoz va ota-onalar ta’lim-tarbiyada adl bo‘lishi kerak. Mana shundagina biz bugungi globallashuv asri yoshlari hisoblangan farzanlarimizga adolatli kuch bo‘lgan ne’mat – to‘g‘ri tarbiyani bera olamiz. Demak, siz-u bizning yelkamizda katta mas’uliyat bor!

Bugun yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar beqiyos. Ularning jahon arenalarida erishayotgan g‘alabalari – sport, madaniyat, adabiyot, ijtimoiy-siyosiy soha – barchasining negizida yuqorida ta’kidlangan adolatli kuch – ta’lim va tarbiya yotadi. Biz tarbiyani yoshlarimizga to‘g‘ri qo‘llay olsak, buyuk sarkarda Amir Temur tuzgan saltanatdan poydevori mustahkam kelajakni qura olamiz.

JAHOLATGA QARShI MA'RIFAT BILAN KURASH



Har bir g‘oya asosida mukammal bilim sohiblari turadi. Ertangi kelajak uchun haqiqiy ma’nodagi jaholatni yenga oladigan ma’rifatli shaxslar kerak. Buning uchun bugun erishilgan yutuqlarda faxrtuyg‘usining o‘zi bilan chegaralanib qolmay, barcha jahon yoshlarining saviyasiidan kelib chiqqan holda o‘z zamondoshlariga yelkadosh bo‘la oladigan yoshlarni tarbiyalash zarur. Negaki, bugun yoshlar ong osti bo‘shlig‘ini ma’rifat bilan to‘ldirma-sak, ertaga ularning ong ostiga har qanday buzg‘unchi g‘oyalarni shakllantiruvchi shaxslar tomonidan turli qo‘shtirnoq ostidagi “ommaviy madaniyat” vositalari asosidagi ta’sir kuchlari o‘z g‘oyalarini joylaydi. Zero, jaholatga faqat va faqat ma’rifat bilan kurashish mumkin.

Joriy yilning 9-aprel sanasida “Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurash” nomli ma’naviy-ma’rifiy kechaga bag‘ishlangan yoshlar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvda Xalqaro Islom akademiyasi o‘qituvchisi B.A.Axmedov, Yunusobod tumani IIOFMB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik M.Rahimov, Adolat partiyasi Yunusobod tumani kengashi rai-si A.Nosirov, TPTI akademik litseyi ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari B.Ahmedova, ToshPTI Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektor M.Ahmedova, 2-Pediatriya fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

M.Alimova, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi uslubchilari N.Nurmetova, J.Jo‘raqulov, institutning 52 nafar talabali hamda akademik litseyning 31 nafar o‘quvchilari ishtirok etishdi.

Tadbirning maqsadi talaba-yoshlar o‘rtasida turli salbiy g‘oya-il-latlarning, xatarlarning oldini olish, jinoyatchilik, huquqbazarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, hozirgi pandemiya sharoitida o‘zi va yaqinlari sog‘lig‘iga befarq bo‘lmaslik, jamoat joylarida oraliq masofani saqlash, karantin qoidalariga qat’iy rioya etishlari lozimligi haqida Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektor M.Ahmedova tadbir avvalida ta‘kidlab o‘tdi.

Xalqaro Islom akademiyasi o‘qituvchisi B.A.Ahmedov tadbirda so‘zga chiqdi:

— Ma’lumki, yigirma birinchi asr axborot asri bo‘lib, davr avlod globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan zamonda yashamoqda. Aynan yosh avlod turli ko‘rinishdagi g‘oyaviy xurujlar nishoniga aylangani ham hech kimga sir emas. Bir tomondan ekstremistik ruhdagi oqimlar faoliyati, boshqa tomonidan missionerlar harakati, uchinchi tomonдан esa “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari yosh avlod ongiga sof Islom dini ta‘limotiga zid aqidalarni singdirish, muqaddas e’tiqodimizdan ayirish va o‘zbekona milliy va diniy qadriyatlarimizdan voz kechishga targ‘ib etish bilan o‘z faoliyatlarini muttasil olib bormoqdalar. Natijada, sof Islom

ta‘limotidan yetarli darajada ilmga ega bo‘lmagan ba‘zi yoshlar ekstremistik g‘oyalarga chalg‘ib turli xil jinoyatlarga qo‘l urmoqdalar, ba‘zilari ana shunday jinoyatlarning qurbaniga aylanmoqdalar. Yana ba‘zilari Islom dinidek ma’rifatparvar, tinchlikparvar, butun insoniyatga faqat yaxshilikdan ta‘lim berguvchi dinni qandaydir arzimagan dunyo matohiga almashib o‘zga dinni din deb qabul qilmoqda. Boshqalari esa, g‘arb davlatlarining moddiy taraqqiyoti go‘yoki ularning madaniyatiga asoslangandek xayol qilib, kiyinishda, o‘zini tutishda, hatto fikrlashda milliylik va diniylikka yot usullarni o‘ziga ma’qul ko‘rmoqda. Bularning barchasi oxir oqibat porloq kelajagimizga turli-tuman ofat va balolarning rahna solishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, men siz yoshlarga yuzlanib ta‘kidlamoqchimanki, avvalo, Vatanni va onani seving. Kitobxonlikka e’tibor qarating va dinning ilmiy asoslangan g‘oyalariiga ishoning!

Ma’naviyati yuksak, har qanday yot g‘oyalarga chap bera oladigan, o‘zining mustahkam e’tiqodi va milliy qadriyatlarini mahkam tutib, undan og‘ishmay yashaydigan xalqni hech qanday kuch yenga olmaydi. Balki, uning metin irodasi oldida g‘animlar bosh egib ta‘zim qiladi. Tarixdan bunga ko‘plab missollarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda ham turli ko‘rinishdagi g‘oyaviy xurujlar davom etayotgan bir davrda, ayniqsa internet ushbu xurujlarning vositasiga aylanib ulgurgan bir sharoitda yoshlarimizni internetdan foydalanish madaniyatiga jiddiy e’tibor qaratish bilan, internet orqali tarqatilayotgan yot g‘oyalarni farqlay oladigan, unga qarshi tura oladigan ma’naviy saviyani ham tarbiyalashni izchil amalga oshirish lozim bo‘ladi. Zero, Vatanga ma’rifatli yoshlar kerak!

A.XUDAYBERDIYEV
Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat
va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

Buyuk sarkarda va adolatli shoh

“Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbirkor kishi tadbir bilan amalga oshirishi mumkin”, - deya buyuk sarkarda Amir Temur “Temur tuzuklari” nomli hikmatlarda keltirib o‘tgan. Darhaqiqat, hamon barcha rahbar va yoshlarga ibrat bo‘lib kelayotgan ushbu asarda tom ma’nodagi tarbiya vositasidir. Zero, Sohibqiron Temur hayot yo‘lidagi sinalgan uslub va haqiqatlarni keltirib o‘tgan. Bu o‘rnida barcha zamonning ibrat maktabidir.

Kuni kecha oliygohimizda Sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirga tashrif buyurgan mehmon – Adolat partiyasi Yunusobod tumani kengashi raisi A.Nosirov hamda oliygohning Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektori M.Ahmedova, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i A.Xudayberdiev, 2-pediatriya Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan o‘rinbosari M.Alimova, Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat-ma’rifat ishlari bo‘limi uslubchilari J.Jo‘raqulov, N.Nurmetova hamda oliygoh talabalari ishtirot etishdi.

Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektor M.Ahmedova: “Buyuk Sohibqironning vatanimiz rivoji hamda jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasi beqiyosdir. Xalqimiz, jumladan siz yoshlar Buyuk ajdodimizning hayoti, xalqimizning ozodligi, markazlashgan davlatchilikni mustahkamlashda qo‘sghan hissasini bilish, anglash va uning o‘gitlariga



amal qilish burchimiz ekanligini yoddan chiqarmasligingiz g‘oyat muhim sanaladi”, - deya ta‘kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligiga erishgach, uning bir necha ming yillik ijtimoiy-siyosiy tarixini har taraflama o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, markazlashgan Amir Temur sultanati, uning o‘zbek davlatchiligi va madaniyatini rivoj-lantirishdagi o‘rni masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko‘plab birinchi manbaa ahamiyatidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning siyosati va xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasi ning 1994-yil 29-dekabrda “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, 1995-yil 26-dekabrda esa Prezidentimizning 1996-yilni “Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi. 1996-yil martida “Temuriylar tarixi” davlat muzeyini tashkil qilish xususida, “Amir Temur” ordenini ta’sis etish to‘g‘risida farmonlar chiqdi. Amir

Temur o‘zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylan-tirish, farovon hayot qurish maq-sadidagina kurashib qolmay, balki bu g‘oyalarning butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U ana shunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig‘i, asosan, to‘rt narsani xotirasida saqlash kerakligini uqtiradi: birinchidan, qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsa, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan ish tutish; ikkinchidan, xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyo-korlik bilan qilish; uchinchidan, o‘z atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) to‘plash va birlashtirish; to‘rtinchisi, bugungi kunning ishini



ertaga qoldirmaslik. Amir Temur dasturi va siyosiy-huquqiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko‘ra, ko‘proq uni amalga oshirish hamda uning mas’uliyatini o‘z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda va mutaffakir sifatidagi o‘ziga xosligi shundaki, u o‘zi hukmronlik qilgan saltanat (imperiya) timsolida mukammal jamiyatni qurdi va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qildi. Amir Temur ulusi – davlati, sultanati markazlashgan mu-sulmon davlati sifatida tashkil topdi. Bunday davlatning tashkil topishida xalq ham, din ahllari ham Temurni qo‘llab-quvvatladilar. Zero, millat o‘z otasiga ergashadi. Demak, rahbar adolatli va har sohada ilg‘or bo‘lmog‘i lozim.

Tadbir davomida Amir Temur maqbarasi nomli film namoyish etildi. Amir Temur hayoti va faoliyati, uning buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida O‘rta Osiyo tarixi va jahon tarixidagi o‘rni roli be-qiyosligi ushbu film barcha tadbir ishtirotchilariga birdek manzur bo‘ldi. Darhaqiqat, Sohibqiron Temur avlodlari, albatta, jahon min-barlarida o‘zbek bayrog‘ini ko‘kka ko‘targan haqiqiy salohiyat egalari bo‘lib yetishishiga ishonamiz.

Xasanxo‘ja ABIDOV
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – institut Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamenti a‘zosi

Ma'rifatli yoshlar kitob o'qiydi



Uchinchi Renessansning asosi hisoblangan beshta ustuvor tashabbusda kitobxonlik alohida o'ren olgan. Bugun yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Kitob o'qigan bola avtomobil sohibi bo'lishga loyiq". Darhaqiqat, bugungi ilmga chanqoq yoshlar orasidan kitob mutolaa qilib, avtomobil sohibi bo'layotgan yoshlar anchagina. Haqiqiy kitobxon uchun kitob mutolaasidan yagona maqsad – ma'naviy va ma'rifiy ilm egallab, komilikka erishishdir. Zero, bugun yoshlarga qaratilayotgan har bir e'tibor asosida ham mana shu ulug'verog'oyalar turadi.

10-aprel kuni oliygohimizda "Adabiyot va ma'naviyat oyligi" nomli kitobxonlikni keng targ'ib qilishga asoslangan tadbir tashkil qilindi. Ushbu tadbirda 2-Pediatriya Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribosari M.Alimova, Axborot-resurs markazi xodimi D.Rasulova, Yoshlar bilan ishslash ma'naviyat-ma'rifikat ishlari bo'limi uslubchilari J.Jo'raqulov, N.Nurmetova hamda oliygohimizning a'lochi va kitobsevar 84 nafar talabalarini ishtirok etishdi. 2-Pediatriya Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribosari M. Alimova tadbir boshida: "Aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitob savdosini tashkil

etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob yetkazib beruvchilarni zamонавија ijtimoiy ehtiyojlariga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxonalar markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblar ni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish hamda xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida Respublikamizda aprel oyining 1 haftasi "Kitobxonlik haftaligi" deb e'lon qilindi", - deya ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat, kuni kecha davlatimiz rahbari boshchiligidagi qabul qilingan qarorlari (781-sun, 14.12.2020 y.) bilan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi tasdiqlandi. Bu

haqda Huquqiy axborot kanali xabar berdi:

"Aholi, avvalo, yoshlarning – Qarorga ko'ra, 2021-yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasi "Kitobxonlik haftaligi" etib belgilandi". Shuningdek, qaror bilan tasdiqlangan Dasturni 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga ko'ra, nashriyotlar tomonidan yozuvchilarga ajratiladigan gonorar masalasini takomillashtirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Institutning Axborot-resurs markazida uch mingdan ortiq fanga doir hamda badiiy-adabiy kitoblar mavjud bo'lib, ulardan talabalar foydalanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda talabalariga qulaylik yaratish maqsadida elektron va audio kitoblar yaratilgan. Axborot-resurs markazi telegram kanali orqali talabalar uchun kerak bo'lgan kitoblar tashlab beriladi. Zero, yoshlar bizdan ko'ra ilmi bo'lishlari kerak.

M.AHMEDOVA

Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor



G‘alaba bog‘iga tashrif

“Bu bog‘ xalqimizning G‘alabaga qo‘sghan hissasini aks ettireshi, otalarimiz va bobolarimiz qahramonligini abadiylashtirishi kerak”, - deya ta’kidlagan edilar davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Ikkinchiji urushidagi G‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida G‘alaba bog‘i va muzeyini barpo etish bo‘yicha tashabbuslarida. Dara-haqiqat, bugungi kunda ushbu barpo etilgan bog‘ niroyatda ko‘rkam, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, ota-bobolarimiz ruhiga bag‘ishlangan beqiyos xotira timsoli bo‘ldi. Chunki har bir eksponat va bog‘dagi haykallar tasviri misli jonlidek, har bir tomoshabinga katta taassurot uyg‘otadi. Bog‘da 1941–1945-yillardan harbiy texnika va qurol-aslahalar, okoplar va blindajlar kompozitsiyalari va turli xil installyatsiyalar o‘rnatalgan, muzey qurilgan. Bu bog‘ har bir yosh avlodga mana shu yurtimizdagagi tinchlik ortidagi qancha shahid va qahramonlar mehnati va umri borligini hamda tinchlik qadrini anglashlari uchun katta maktab bo‘la oldi va bugun yurtimizdagagi katta madaniyat maskanlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti Klinik farmakologiya kafedrasi xodimlari talabalar bilan birgalikda Toshkentda ochilgan G‘alaba bog‘i va muzeyiga tashrif buyurishdi. Bog‘ning hashamati, har bir eksponatlarning rejali joylashganligi, chiroqli bezatilganligi ko‘zni quvontiradi. Ulug‘ Vatan



urushi davrida qo‘llanilgan harbiy texnika namunalarini jonli ko‘rish yanada taassurotlarimizni yorqinroq bo‘lishiga sabab bo‘ldi. G‘alaba bog‘i va muzeyini ko‘rishga kelganlar orasida yoshlar ham, keksalar ham bor, O‘zbekistonning turli viloyatlaridan ham mehmonlar ziyoratga kelishgan. Ular bilan bir qatorda G‘alaba bog‘ining to‘rida joylashgan muzeyga kirdik. Kira-verishdagi katta pannoda O‘zbekiston xalqining Revolyutsiyagacha davri, 1941-1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushi davrida o‘zbek xalqining shijoati va mehnati, “41 yil olmalari” filmidan ham bir ko‘rinish, urush vaqtida ota-onasiz qolgan bolalarni oddiy o‘zbek xalqi bag‘riga olganligini ko‘rinib turibdi.

O‘sha davrlarda Ona Vatanimizdagagi har bir oila o‘z farzandlari qatorida frontga yordam berish uchun zavodlarda qurol-aslahaya tayyorlab yordam bergan bo‘lsa, dalalarda mehnatkashlar nafaqat O‘zbekiston uchun, balki, sobiq SSSR xalqi uchun ham xizmat qildi. Bular hammasi hujjatli filmlarda ko‘rsatilgan. Shu yerda

yana 2-jahon urushida qatnashgan o‘zbek shifokorlarini ham video-filmari mavjud. Bugun ularning xotirasini yod etish har birimizning burchimiz.

G‘alaba bog‘i va muzeyi us-toz-murabbiylar hamda talabalarda kuchli taassurot qoldirdi. Nafaqat, tinchlik asoschilari sifatida, balki, kelajakning poydevorlari sifatida ham Juhur urushi qatnashchilari va front ortidan xizmat qilgan barcha qahramonlarimizning nomlariga ehtirom tuyg‘usi yanada yuksaldi. Bu kabi yurtimizda oshirilayotgan tinchlik qadri va bobolar yodini abadiylashtirish kabi islohotlar davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda keng miqyosda amalda o‘z aksini topmoqda. Bizning vazifamiz esa kelajak avlodga bundanda poydevori mustahkam, adolatdan bapro bo‘lgan Vatanni yetkazishdir.

**Sh. QASIMOVA,
G.XAQBERDIYEVA,
R.AZIZOVA**
*Klinik farmakologiya
kafedrasi xodimlari*



ADIB VA IJOD



“Abdulla Qodiriy... qalbi butun, o‘ziga xos shaxs, tug‘ma epik yozuvchi, keng ko‘lamdag‘i master, yuksak ma’nodagi realist san’atkordir”, - deya e’tirof etgan edi buyuk o‘zbek adibi Oybek. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy tug‘ma ijodkor va qalb san’atkordir. Adib o‘zbek romanchiligining tamal toshini qo‘ygan ijodkor sifatida mana necha yillarki, xalq millat yuragida abadiy yashaydi. Institutimizning O‘zbek, rus va lotin tillari kafedrasi tomonidan ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qodiriy hayot va ijodiga bag‘ishlangan davra suhbatida bo‘lib o‘tdi. Ushbu davra suhbatida O‘zbek, rus va lotin tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, taniqli

shoira K.Turdiyeva, o‘quv ishlari bo‘yicha mas’ul R. Berezovskaya, ilmiy ishlari bo‘yicha mas’ul N.Mexmonova, kafedraning katta o‘qituvchilari – M.Mahkamov, Z.Sodiqova, filologiya fanlari nomzodlari G.Qurramboyeva, G.Axmedova hamda institutimiz o‘qituvchilari – Z.Rasulova, F.Akbarxo‘jayeva va “Davolashi” yo‘nalishi birinchi bosqich talabalari ishtirok etishdi. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati, “Mustaqillik” ordeni sovrindori Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasi asosida O‘zbekiston Davlat drama teatri aktyorlari tomonidan sahnalashtirilgan sahna ko‘rinishi barcha ishtirokchilarga manzur bo‘ldi. Bu sahna ko‘rinishida A.Qodiriyning ayanchli hayo-

ti, o‘z xalqining madaniy saviyasini oshirish uchun qilgan harakatlari, shu yo‘lda boshiga tushgan qiyinchiliklari, nohaqliklar, do’stlarning sotqinliklari, yaqinlarining tortgan azob-uqubatlari taniqli aktyorlar tomonidan juda hayotiy tarzda ijro etildi. Bu sahna ko‘rinishi, avvalo, millatni uyg‘onishga chorlaydi. Zero, adib va ijod ruhi chambarchas bog‘langsagina, adolatni mangu yoza oladi. Bugun adib va uning ijodi nafaqat yurtimizda, balki barcha dunyo xalqlarida ham e’tirof etilmoqda. Chunki Qodiriy – adib va ijod ruhi birga tug‘ilgan ijodkor edi.

M.HAMRAQULOVA
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha mas’ul

Teatr – hayot ko‘zgusi

San’at – insonning nozik kechinmalarini, oltinchi hissiyotini shakllantiradigan keng ma’nodagi inson ma’naviy olamini boyitib boradigan xalq madaniyatining bir ko‘rinishidir. Zero, har bir san’at va madaniyat – bizning hayotimizning bir parchadir. Bu borada teatr katta ahamiyatga ega. Chunki, har bir tuyg‘ularning inson ko‘zi o‘ngida jonli ijroda namoyishlari, hissiyotlarni ishonarli tarzda ifoda etishlarida aktyorlardan katta mahorat talab qilinadi. Demak, teatr – hayot nafasi bilan chambarchas bo‘lgan yagona san’at turi. Negaki, teatr – hayot haqiqatining bir bo‘lagi.

Hayotimizni kundan kunga yaxshilanayotganligini ko‘rib quvonamiz, ammo shu oxirgi 2019-yildan ancha og‘irlashib qoldi. Bu butun dunyo boshiga kelgan COVID-19 ofati bo‘lib, pandemiya natijasida nafaqat bizda, Yer kurrasidagi barcha mamlakatlar ham ko‘p aziyat chekdi. Fidoyi shifokorlarimizning sa’y-harakatlari tufayli ko‘pchilik bemorlarga yengillik berilib, sog‘ayib chiqishdi. Sog‘liqni saqlash vazirlar mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan COVID-19 infeksiyasini davolash va reabilitatsiyasi uchun tushirilgan qo‘llanmalar shifokorlarimizga yaqindan yordam berdi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida boshqa davlatlariga nisbatan kasallik nisbatan kam bo‘lishi bilan birga, karantin muddatlari ham qisqartirildi. Bu esa



xalqimizning faravon hayot tarzini yanada yuksaltirdi.

Yangi o‘quv yiliga ancha yengillik tug‘ilib, institutimiz tomonidan ham talabalarimizni ma’naviy-ma’rifiy hayotlarini yanada takomillashtirish maqsadida Muqimiy va satira teatrlariga taklifnomma berildi. Har bir kafedradagi ustoz-murabbiylar guruhlari bilan birga Muqimiy teatriga borishdi. Muqimiy teatri Toshkent shahrida sobiq ittifoq davridan barpo etilib, hali zamon o‘z faoliyatlarini muntazam yangilab olib borishadi. Oliygohimizning Klinik farmakologiya kafedrasini bilan Umumiy xirurgiya kafedra xodimlari yonma-yon bo‘lib qolganligimiz tufayli, ular bilan birga

Muqimiy teatriga “Tohir va Zuhra” – spektaklini yangi talqinidagi sahna ko‘rinishi namoyishidan bahraramd bo‘ldik. Klinik farmakologiya kafedrasini ustoz murabbiysidan N.

Malyanova va Umumiy xirurgiya kafedrasidan M. Agzamova o‘z talabalari bilan birgalikdagi tashrif buyurishdi.

Sahnadagi lavhalar xozirgi hayotimizga moslab, juda qiziqarli qilib tayyorlanganligi, zamон talabiga javobi bilan bir qatorda, o‘z madaniyatimizni ulug‘lab ko‘rsatilgan. Zaldan bironta ham inson to tamom bo‘limguncha o‘rnidan turib ketmay tomosha qilishdi. Biz o‘ylaymizki, turib ketmaslik, aktyorlarning mehnatiga olqishlar bo‘lib, teatr xodimlari uchun yuksak bahodir.

Bu kabi sahma ko‘rinishlarda milliy ruh va oddiylik borligi uchun barcha tomoshabinlar olqishlashadi. Chunki teatrda inson ruhan asar qahramonlari bilan birga bo‘ladi. Ularning dard va muhabbatlari bilan bir lahzaga sherik bo‘lib, ma’naviy va madaniy olamini boyitib boradi. Teatrni haqiqiy ma’nodagi hayot ko‘zgusi deya olamiz. Zero, teatr ham hayotimizning bir parchasidir.

M. AGZAMOVA
Ummiy xirurgiya rafedrasi, dotsenti
R. AZIZOVA
Klinik farmakologiya kafedrasi
ustoz-murabbiysi





Men – Dehqonov Toxir 2001-yil 25-noyabr sanasida Toshkent viloyati Parkent tumani G‘o‘rtepa (hozirgi nomi Obod) qishlog‘ida tug‘ilganman. Piskent tumanidagi 31-UO‘T maktabida o‘qiganman. So‘ng Olmaliq shahridagi litseyda tahsil oldim. 2019-yil ToshPTIda grant asosida o‘qishga qabul qilindim. Hozir 2-bosqich talabasiman.

Dadam kitobxon inson bo‘lgan. Badiiy kitoblarni ko‘p o‘qiganlar. Shu sabab menda ham adabiyotga qiziqish uyg‘ongan. Muhammad Yusuf va Usmon Nosirning she’rlari menga juda ham yoqadi. Ularning ijodi va hayoti bilan tanishib chiqqach menda she’riyatga qiziqish kuchaydi. Keyinchalik she’r yozish istagi tug‘ildi. Dastlabki yozgan she’rlarim ustozimga atalgan she’rlar bo‘lgan. Maktab davrida yozgan she’rlarimni sinfdoshlar va oila a’zolarimdan boshqa insonlarga ko‘rsatmaganman. She’riyatga qiziqsam ham jiddiy qaramaganim uchun she’rlarimni to‘plamasdim. Oliygotha 2-kursga she’rlarimni to‘plashni boshladim. She’rlarimda bolalik xotiralarim va ichki kechinmalarimni sodda tilda yoritib berishga harakat qilaman.

Men – Dehqonov Toxir 2001-yil 25-noyabr sanasida Toshkent viloyati Parkent tumani G‘o‘rtepa (hozirgi nomi Obod) qishlog‘ida tug‘ilganman. Piskent tumanidagi 31-UO‘T maktabida o‘qiganman. So‘ng Olmaliq shahridagi litseyda tahsil oldim. 2019-yil ToshPTIda grant asosida o‘qishga qabul qilindim. Hozir 2-bosqich talabasiman.

Ona qishlog‘im

*Kichik qir yonida kichik bir qishloq
Mexr-u muhabbat g‘arq pishgan bog‘im
Insoniy tuyg‘ular qaynagan buloq
Mening qalbimdasan ona qishlog‘im
Bolaligim o‘tgan toshloq ko‘chalar
Ko‘zimga yosh kelar eslagan chog‘im
Buvim ertak aytgan oydin kechalar
Mening qalbimdasan ona qishlog‘im
Esimda ko‘changda yurgan kezlarim
To‘p o‘ynab timnasdim, yalang oyog‘im
Quvonchdan porlardi doim ko‘zlarim
Mening qalbimdasan ona qishlog‘im
O‘tgan hayotimga guvohsan o‘zing
Ilk bosgan izlarim tushgan tuprog‘im
Meni ulg‘aytirgan qish, bahor, yozing
Mening qalbimdasan ona qishlog‘im
Men uchun azizdir sening tuprog‘ing
Va unda ko‘kargan har bitta giyoh
Sevganimning ismin o‘yib yozganman
O‘scha daraxtlar ilk sevgimga guvoh
Odamlaring sodda, mehribon, sofdir
Hammasi uy-joyim, bolam deb yashar
Do‘stilarim davrasin qumsaydi ko‘ngil
Borolmay dilimda dardlarim oshar
Sog‘inaman seni rasmingga boqib
Borolmayman buni xoxlamay harchand
Ollohim nasib qilsa izlanib o‘qib
Bo‘laman sen uchun munosib farzand
Shifokor bo‘lmoqlik men uchun maqsad
INSHAALLOH maqsadga albat yetaman.
Bir kuni bag‘ringga qaytaman xursand
Va sening tuprog‘ing bo‘lib ketaman.*

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI: Fakultet pediatriya.

DOTSENTLAR: Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari. Akusherlik va ginekologiya, bolalar akusherligi va ginekologiyasi; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi.

ASSISTENTLAR: Anatomiya; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Bolalar stomatologiyasi; Xirurgik kasalliklari; Bolalar yuqumli kasalliklari; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi; Endokrinologiya; Shoshilinch pediatriya, halokat tibbiyoti; Patologik anatomiya; Gistologiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Epidemiologiya, yuqumli kasalliklar.

Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 09.04.2021.

<p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas‘ul: R. G‘o‘chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay‘ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannanov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	--	---	--